

YOSHLARNI TURLI AXBAROT XURUJLARIDAN ASRASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Sadikova Feruza Taibovna

*Guliston Davlat Pedagogika instituti
pedagogika va psixologiya yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatda yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatyotgan axborot xurujlariga singib kirishini oldini olish va bu borada psixologik xavfsizlik haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Islom Karimov, "Axborot xuruji", Globallashuv, axborot, kiberjinoyat, yoshlar, milliy g'urur, milliy ruh, individual-psixologik, AKT.

Yoshlarni turli axbarot xurujlaridan asrashning psixologik omillari. Bugungi globallashgan dunyoda yagona axborot makoni vujudga kelishining ijobiy tomonlari juda ko'p. Biroq, undan yuqori texnologik imkoniyatlarga ega bo'lgan ba'zi buzg'unchi kuchlar g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanib qolishga urinmoqda. Bunday sa'y-harakatlar ko'pincha "Axborot xuruji" tarzida amalga oshirilmoqda. Demak, globallashuvning salbiy jihatlari ham kam emas. Yangilikka, turli axborotlarga hamisha qiziqish bilan qaraydigan yoshlar ongiga internet qay darajada ta'sir ko'rsatayotgani haqida aytilayotgan har bir fikr zamirida ulkan ma'no mujassam. Yoshlarning internetga bo'lgan qiziqishlarini yaxshi bilgan ayrim buzg'unchilar bundan juda ustalik bilan foydalanib, "axborot xuruji"ni avj oldirmoqdalar. Hozirgi davrda jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari butun insoniyat, yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti uchun, ayniqsa, hayotga kirib kelayotgan yosh avlod uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratib bergan. "Avvalambor, fan va texnikaning ilg'or yutuqlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internet tizimi turli davlatlar va mintaqalar o'rtasidagi chegaralarni ochib berib, o'zaro hamkorlik va integratsiya rivojiga so'zsiz katta hissa qo'shayotganiga bugun barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz", –deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov. Lekin odamzot tafakkurining yuksak va yorqin namoyoni bo'lgan bunday yutuqlar ayni paytda katta kuch-quvvat va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan ayrim siyosiy kuchlarning g'arazli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy qurol sifatida ishlatilayotganini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Odamlarning, birinchi navbatda yoshlarning ongu tafakkurini, ma'naviy olamini izdan chiqarishga qaratilgan bunday urinishlarning asl mohiyatini, ularning uzoq va davomli, salbiy oqibatlarini anglash va bunday xavf-xatarlarning oldini olish bugungi kunda o'ta muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Shunday ekan, yagona axborot makonida yoshlarni turli buzg'unchi g'oyalarga yo'g'rilgan "Axborot xuruji" va boshqa mafkuraviy tahdidlardan asrash zarur. Buning uchun birinchi galda ularga hayot haqiqatini, oq bilan qorani to'g'ri tushuntirmoq va shu yo'sinda yosh avlod qalbida mafkuraviy immunitetni muttasil oshirib bormoq lozim. Ishonchli,

oddiy, tushunarli axborotlar bilan bir qatorda yashirin ravishda shaxs axborot-psixologik xavfsizligiga tahdid qiluvchi ma'lumotlar ham kelishi mumkin, ularni ajrata bilish esa shaxsning individual qobiliyatiga bog'liq.

O'z individual-psixologik xususiyatlari va ruhiyat faoliyatining umumiy tasnifi va qonuniyatlarini bilish hozirgi vaqtda inson uchun nafaqat zarurat, balki ijtimoiy o'zaro aloqada, turli shaxslararo bo'ladigan vaziyatlarda xavfsizlikning eng muhim sharti bo'lib qolayotir. Bugungi kunda yoshlarning ma'naviy uyg'oqlik tuyg'ularini mustahkam qaror toptirish, ma'naviyatini yuksaltirish, ongida ruhiy poklik, ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarini doimiy, samarali va ta'sirchan tarzda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda olib borish davr taqozosidir. Yoshlarning ma'naviy olamini yuksaltirish hamda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda AKTning roli katta. Mazkur talabning bugungi vazifasi tinglovchilarni kun sayin ko'payib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida kerakli axborotdan to'g'ri maqsadlarda foydalana olishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun Internet tarmo-g'ining milliy segmentida resurslarni ko'paytirish, rivojlantirish, ularni foydalanuvchilarga qulay tarzda taqdim etish, axborotlar-ning shaffofligi hamda xavfsizligini ta'minlash, turli tashqi zararli axborot ta'sirlardan himoyalash va foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Ular tarbiyasiga ommaviy axborot vositalarining ta'siri yuqori ekanligini hech kim inkor qilolmaydi. Globallashuv jarayonining o'ziga xos jihati uning mafkuraviy ta'sir o'tkazish quroliga aylanishi mumkinligi bilan izoh-lanadi. Bugun uzoq-yaqin mintaqalarda yuz berayotgan voqealarni inobatga olsak, hali ongi, hayotiy qarashlari shakllanmagan yoshlarni chalg'itishga qaratilgan g'arazli kuchlar internet tarmog'idan o'z manfaati yo'lida foydalanayotganini ham inkor etib bo'lmaydi. Bugun internetdan foydalanuvchilarni shartli ravishda, ikki toifaga ajratish mumkin. Birinchi toifadagilar kasbi talabidan kelib chiqqan holda yoki ilmiy tadqiqotlari uchun zarur ma'lumot va axborot olish maqsadida, internetga murojaat qilayotganlar bo'lsa, ikkinchi toifadagilar shunchaki, qiziqishiga ko'ra, deylik, axloq-sizlik, tanishuv saytlariga kirib yoki onlayn o'yinlari bilan kun o'tkazish kayfiyatida bo'lganlardir.

Demak, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish va ma'na-viy immunitetini kuchaytirish, axborot ma'daniyati va mediasavod-xonligini oshirish-axborot xavfsizligini ta'minlashning bosh omili, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bugunda globallashuv davom etayotgan va xalqaro munosabatlarning butun tizimi o'zgarib borayotgan bir sharoitda jahondagi harbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf-xatar hamda tahdidlar ko'lami kengayib borayotganligi – geosiyosiy qarama-qarshilikning kuchayishi, mojarolar va tang vaziyatlarni kuch ishlatib xal etishga bo'lgan yondashuvning ustunlik qilishi, kuch ishlatish, shu jumladan ommaviy qirg'in qurollarini qo'llash ehtimoli oshib borayotganligi, harbiylashtirish, xalqaro terrorizm va ekstremizm faollashuvi davom etayotganligi, axborot va kibermakonda o'zaro kurash kuchayotganligi bilan tavsiflanmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayni paytlarda boshqarish, nazorat qilish va cheklash qiyinlashib borayotgan va inson ongiga turli yo'llar orqali singib kirayotgan ma'lumotlar axborot makonida turli ijobiy

yoki salbiy ta'sirlarni keltirib chiqarayotganligini kuzatmoqdamiz. Yer sayyorasida sakkiz milliarddan ortiq inson yashayotgan bo'lsa, tabiiyki, ularga havola etilayotgan axborotlar undan-da ko'p. Masalaning shu tomoni ham borki, mazkur axborotdan qaysi biri xolis, qaysi biri kimning va nimaning manfaatlari uchun xizmat qilishini anglash naqadar mushkul. Axborotlar inson ongi va tafakkuriga turli yo'nalishlarda ta'sir o'tkazuvchi, yaxlit insoniyat hayotini va taqdirini u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh salbiy, goh ijobiy mohiyat kasb etuvchi qudratli vositaga, eng kuchli qurolga aylandi. Chunki, "Kimki axborotga ega bo'lsa, u, dunyoga egalik qiladi", - degan fikr bugungi kunda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilmoqda. Shaxsning axborotlar bilan ta'minlanganlik darajasi bugungi kunda katta ahamiyat kasb etmoqdaki, ular insonning o'z-o'zini va ma'lum axborot makonidagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy, axloqiy nufuzini belgilashda asosiy omillardan biriga aylanmoqda

Informatsion-psixologik xurujlar eng avvalo, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish orqali boy madaniyatimiz va ma'naviy qadriyatlarimizga mutlaqo zid bo'lgan mafkura va buzg'unchi g'oyalarni yoshlarning ongi va tafakkuriga singdirishga qaratilgan tajovuzkorlikning mafkuraviy shaklda namoyon bo'lishidir.

Informatsion-psixologik xurujlar – bu shaxs va ijtimoiy guruhning ongiga ruhiy ta'sir ko'rsatishning bir turi bo'lib, asosan oldindan puxta tayyorlangan axborotdan foydalanish hamda axborot ta'sir ko'rsatishning turli shakllari yordamida shaxs va ijtimoiy guruhning ongini ta'sir ko'rsatayotgan kuchlar tomoniga ag'darish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Informatsion-psixologik xurujlar – shaxsga, muayyan tashkilot va davlatga yo'naltirilgan ta'sir bo'lib, uning asl maqsadi o'sha shaxs, tashkilot va davlatni normal hayot tarzining buzilishini nazarda tutgan siyosiy va ijtimoiy guruhlarining g'arazli niyatlaridan kelib chiqadi, shuning uchun ham ular mohiyatan ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi.

Albatta, zarur axborotlarga ega bo'lishga intilish – davr talabi. Bugungi kunda har bir mamlakatning axborot makoni ikki xil axborot bilan to'ldirilmoqda: birinchisi - kuchli axborot texnologiyalariga ega mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan va ularning manfaatlarga xizmat qiladigan axborot bo'lsa, ikkinchisi - har bir davlat o'zi haqida ishlab chiqqan va milliy manfaatlarini himoya qiladigan ma'lumotlardir. Demak, ayni zamonda shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlat o'zi haqida ishlab chiqqan axborotlarni tarqatishi ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, Internet tarmog'i imkoniyatlari kengayib borayotgan hozirgi davrda bu ne'matdan mamlakatimizning jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini mustahkamlashda keng foydalanish zarurdir. Jahonga tanilish uchun nafaqat real dunyoda, balki axborot dunyosi, jumladan, virtual dunyoda ham harakatlar olib borish darkor. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "bu borada ishni to'g'ri tashkil etish uchun Internet tizimidan samarali va oqilona foydalanish, uni o'zimizning ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak...", bizning zaif tomonimiz shundaki, Internetda O'zbekiston bilan bog'liq ma'lumotlar juda kam. Nega deganda, bizda bu jarayonning texnikasi va texnologiyasi talab darajasida emas. Milliy qadriyatlarimiz, tarix

va merosimiz, bugungi fan, san'at va adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini Internetga kiritish dasturi ishlab chiqilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kolobov O.A., Yasenev V.N. Kontrterrorizm i informatsionnaya bezopasnost v sovremennom mire. Monografiya. – Nijn. Novgorod: Nijegorod universiteti nashriyoti, 2004.

2. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 15 apreldagi O'RQ-764-son "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun.

3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Tom 1.-T.: O'zbekiston.-1996.- 84 b.

4. A.U.Anorboyev, R.X.Xursanov. Kiberjinoyatchilik va kiberxavfsizlik qonun ijodkorligining zamonaviy tendensiyalari: milliy, xorijiy va xalqaro tajriba. (Monografiya). - T.: "Aloqachi" 2020. 360 b.

5. Anorboyev A.U. Kiberjinoyatchilik: jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar. Dissertatsiya ishi. -T.: 2020.

6. Dusboyev A.T. Axborot-psixologik xavfsizlik asoslari. - CHOTQMBY.: 2019. 92 b.

7. Sodirjonov M. SOME FACTORS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL CAPITAL. – 2023.

8. Sodirjonov M. M. INSON KAPITALI RIVOJLANISHIDA OLIY TA'LIMNING AHAMIYATI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 23-29.

9. Sodirjonov M. M. Monitoring the issues of human capital research in ethnosocial processes and social trends //Social policy and social partnership. – 2021. – №. 6. – C. 6.